



FARG‘ONA VILOYATI RISHTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 14-mart

82-11-158-Q/25

Rishton tumani hokimligi

Farg‘ona viloyati hokimining 2025-yil 12-fevral kungi “2025-yilda Farg‘ona viloyatida Olimpiya va Paralimpiya harakati, sport ta’limi va seleksiya hamda ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish va aholi jismoniy faolligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risida”gi 84-11-0-Q/25-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, shuningdek, Farg‘ona viloyatida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, aholini jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish, hududiy sport federatsiyalari (uyushmalari) faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, olimpiya va paralimpiya sport turlarini rivojlantirish orqali nufuzli xalqaro sport musobaqalari, jumladan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga sportchilarimizning har tomonlama muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash maqsadida qabul qilgan viloyat hokimining 2025-yil 12-fevral kungi 84-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 hamda 21-moddalariga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimining 2025-yil 12-fevral kungi 84-11-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining mazkur qarori bilan Olimpiya va Paralimpiya harakati, sport ta’limi va seleksiya hamda ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish va aholi jismoniy faolligini oshirish yuzasidan Farg‘ona viloyatida 2025-yilda amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha “yo‘l xaritasi” (keyingi o‘rinlarda–yo‘l xarita) 1- ilovaga;

Farg‘ona viloyatida 2025-yilda erishiladigan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo‘yicha erishiladigan maqsadli ko‘rsatkichlar 2-ilovaga;

2025-yilda hududiy sport federatsiyalari (uyushmalari) bilan “sport qabullari” o‘tkazish bo‘yicha reja-jadvali 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy shug‘ullanadigan aholi ulushi joriy yilda kamida 32 foizga yetkazilishi belgilanganligi ma’lumot va ijro uchun olinsin;

3.Tuman hokimining o‘rinbosari Z.Umarov, tuman sport maktabi O.Ismoilov, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi I.Aminov bilan birgalikda:

tuman yoshlarining sportga qiziqishlarini kuchaytirish maqsadida tajribali va taniqli sportchilar ishtirokida motivatsion uchrashuvlar tashkil etish tizimi yo‘lga qo‘yish;

Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik ko‘rayotgan sportchilarning ijtimoiy-maishiy va moddiy ta‘minotini yaxshilash bo‘yicha zarur chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirib borish;

xususiy sport klublari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rish;

mazkur qarorda va Yo‘l xaritasida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi har haftada bir marotaba sport ta‘lim muassasalari ishtirokida muhokama qilib borish vazifasi yuklatilsin.

4.Tuman hokimligi matbuot xizmati (A.Dehqonov) mazkur qaror mazmun-mohiyatini keng omma e‘tiboriga yetkazilishini, e‘lon qilinishini va tuman hokimligi veb-saytiga joylashtirilishini ta‘minlasin.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Z.Umarov zimmasiga yuklatilsin

Tuman hokimi



Б.Холиков